

Jizzakh State Pedagogical Institute



Journal of Preschool Education

*The faculty of pre-school
education*



MAKTABGA TAYYORLASHDA OTA-ONA VA MTT HAMKORLIGI

Qarshiyeva Komila Abdumalik qizi

Jizzax viloyati Baxmal tumani Gulbuloq MFY

19-sonli DMTT katta guruh tarbiyachisi

O'zbek oilasining o'ziga xosligi sharqona odob-axloq, rasm-rusum, urf-odat, milliy qadriyat hamda an'analar, ta'lim-tarbiya, ma'naviy yetuklikka intilish kabilarning barhayotligidadir. Bolalarning ta'lim-tarbiya va bilim olishiga asosiy zamin yaratuvchi maskan oiladir. Farzandlarimiz, avvalambor, oilada, ota-onadan ibrat olgan holda shakllanadi. Ota-ona bolaga boshidan ta'lim-tarbiya, nutq madaniyati, odamiylik xislatlarini qunt bilan singdirib borsa, kelajakda u barkamol, sog'lom, mustaqil fikrlovchi, eng asosiysi, odobli shaxs bo'lib yetishadi. Inson hayotda bilim olishga intilish, Vatanni sevish, ardoqlash, kattalarni hurmat qilish hamda muomala madaniyatini ota-onadan o'rganadi. Yosh avlodga ma'naviy, axloqiy, madaniy tarbiya berishning usul va vositalari xilma-xil bo'lib, bular ichida bola nutqi va muomalasi alohida o'rin tutadi. Farzand – ota-onaning baxti va boyligi. O'z navbatida u ota-onasini astoydil hurmat qilishi oila ko'rki sanaladi. Ota-onaning shaxsiy namunasi bolani tarbiyalashda eng muhim tamoyillardan biridir. Bolalarni yuksak axloqli va odobli qilib tarbiyalash qadim zamonlardanoq barcha xalqlarning orzusi, istagi bo'lib kelgan. Ota-ona bolasiga mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, o'zidan kichiklarga shafqatli bo'lish va g'amxo'rlik qilish, yovuzlikka nafrat kabi ijobiy xislatlarni shakllantirishga harakat qilgan. Bugungi kunda ham farzandlarining ehtiyoj va intilishlari asosida yuksak darajada ta'lim-tarbiya berayotgan oilalar juda ko'plab topiladi. Bola har qadamda kattalardan ta'sirlanadi, eshitgan-ko'rganlariga taqlid qiladi. Ota-onalaridan muloqot madaniyatini o'rganadi va bu keyinchalik ularning hayot mazmunini begilaydi. Ota-onalar, avvalambor, bolalarining nutq madaniyatini nazorat qilib borishi, o'zaro muloqotda nutq madaniyati qoidalariga rioya qilishi, bola nutqini takomillashtirishni to'g'riyo'lga qo'yadi.

Har bir oila umumjamiyat talablari asosida shakllanadi. Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa unda mavjud bo'lgan oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy qiyofasining shakllanish darajasiga bevosita bog'liq. Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlabgina qolmay, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo'lib voyaga yetishishlarida beqiyos ahamiyatga ega.

Oilada uyushtiriladigan suhbatlarning alohida ahamiyati bor. Odob-axloq mavzusidagi bunday muloqotlar farzandlarning til vositalarini mustaqil tarzda qo'llashiga erishish zarurligini ko'rsatadi. Bunday oilaviy suhbatlar bolaning kundalik faoliyat hamda sayr-u sayohatlarida samarali natija berishi, shubhasiz. Hozirgi zamon talablariga muvofiq oilada bolalar ona tilini, adabiy talaffuz me'yorlariga binoan barcha tovush va so'zlarni aniq va tiniq talaffuz etib, so'z boyligini rivojlantirmog'i lozim. Bola shaxsini shakllantirish, nutqini rivojlantirish borasida yo'l qo'yiladigan kamchiliklar ko'p uchrab turadi. Ota-onalarning bolalarga beparvoligi, so'zlashganda nutq madaniyatiga ahamiyat bermasligi bola nutqining buzilishiga olib kelmoqda.

Oilada bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi birgalikda uyushtiriladigan o'yin, sayrlarda yuqori darajada shakllanadi. Bolalar nutq madaniyatini shakllantirishda oila a'zolari va tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatlar muhim rol o'ynaydi.

Tarbiya qanchalik erta boshlansa, hosili ham shuncha barvaqt ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ota-onalar va ta'lim muassasalari tarbiyachilari hamda pedagoglarning vazifasi yosh avlodni aqlan yetuk, jismonan sog'lom, axloqan pok, barkamol inson qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Shuni ta'kidlash joizki, bola tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullangan ota-onalarning farzandlari ta'lim muassasasida o'z imkoniyatlarini mashg'ulot jarayonida qiynalmasdan ko'rsata oladi. Oila va ta'lim muassasalarining uzluksizligi bolani

nafaqat jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantiradi, balki uning ma'naviy shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalar uchun vaqti-vaqti bilan trening, munozara, test, so'rovnomalar o'tkazib turilsa, ayniqsa maktab yoshdagi 6–7 yoshli bolalarni maktabga tayyorgarligini aniqlashda ota-onalar ishtirokida olib boriladigan har bir mashg'ulot farzandining nimaga qodir ekanini anglashiga yaqindan yordam beradi va bolalarni maktabga tayyorlashda oila a'zolarining mas'uliyati oshadi.

Ta'lim muassasalarida ota-onalar va tarbiyachilar bilan o'tkaziladigan har bir munozara bolalarni maktabning ilk bosqichiga yengil qadam qo'yishida hamda sog'lom bola va sog'lom muhit sharoitini mustahkam yaratishga imkon beradi. Treninglar maktabgacha ta'lim muassasa uslubchisi, maktabgacha tayyorlov guruhi tarbiyachisi va tarbiyalanuvchilari hamda ularning ota-onalari, boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishtirokida o'tkazilishi bola rivojlanishida to'g'ri tashxis qo'yishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. Nishonova O. Toshkent
2. V.G.Nichaeva. Maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnatda tarbiyalash - Toshkent. O'qituvchi -1995 y.
3. N.M.Aksarina . «Go'dak bolalar tarbiyasi» - Toshkent «Meditsina» -1983 y.
4. G.A. Kalyujin., M.P.Deryugina. «Yo'rgakdan maktabgacha» -Toshkent «O'qituvchi» - 1988 y